# BIZNES VA BOSHQARUVNING KREATIV IQTISODIYOT HAMDA SUN'IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2026-YIL 23–24-APREL



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

# “BIZNES VA BOSHQARUVNING KREATIV IQTISODIYOT HAMDA SUN’IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI TO‘PLAMI

QARSHI-2026

**“Biznes va boshqaruvning kreativ iqtisodiyot hamda sun’iy intellektni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2026. -1834 bet.

Mazkur maqolalar to’plamida jamlangan maqolalar zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kreativ iqtisodiyot va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlarning samarali rivojlanishi bevosita biznes muhiti va boshqaruv tizimlarining qanchalik to‘g‘ri tashkil etilganiga bog‘liq. Avvalo, biznes sektori kreativ iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativ iqtisodiyot — bu bilim, innovatsiya, intellektual salohiyat va ijodiy yondashuvlarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda reklama, dizayn, IT, media, san’at va startap loyihalar muhim o‘rin tutadi. Aynan biznes subyektlari ushbu sohalarga investitsiya kiritish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish orqali kreativ g‘oyalarni real iqtisodiy qiymatga aylantiradi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimlari kreativ iqtisodiyotning samarali ishlashini ta’minlaydi. Zamonaviy boshqaruv innovatsion fikrlashni qo‘llab-quvvatlashi, xodimlarning ijodiy salohiyatini ochib berishi va moslashuvchan strategiyalarni joriy etishi lozim.

Mazkur to‘plam olimlar, mutaxassislar va talabalar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**MAS’UL MUHARRIR**
**Norqobilova Feruza Abduhomidovna –**
**iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

**TAHRIR HAY’ATI**

| | |
|---|---|
| ***G‘ulomov Saidaxror Saidaxmedovich-*** | O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti |
| ***Raxmonov Lochin To‘xtamishovich –*** | i.f.f.d (PhD) Osiyo texnologiyalar universiteti rektori |
| ***Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich -*** | iqtisodiyot fanlari doktori, professor Buxoro davlat universiteti |
| ***Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich –*** | iqtisodiyot fanlari doktori, professor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasining a’zosi |
| ***Muxitdinov Xudayar Suyunovich -*** | iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti |

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Qarshi davlat texnika universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to’g’riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas’uldir.

Qarshi davlat texnika universiteti, 2026

# JORIY BIOLOGIK AKTIVLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH MASALALARI

***Ravshanov Alisher Bobaqulovich*** *- Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi.*
***e-mail:*** *alisherravshanov0571@gmail.com*
***ORCID:*** *https://orcid.org/0009-0002-5204-2467*

***Annotatsiya:*** *Joriy biologik aktivlar o'zining qisqa hayot sikli va hosil olishga yo'naltirilganligi bilan alohida hisobga olish tartibini talab qiladi. Ushbu maqolada joriy biologik aktivlarni iqtisodiy mohiyati bo'yicha tasniflanishi, ularni buxgalteriya hisobining milliy standarti va moliyaviy hisobotning xalqaro standarti bo'yicha aktiv sifatida tan olish va baholashning farqli jihatlari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *qishloq xo'jaligi mahsulotlari, joriy biologik aktivlar, biotransformatsiya jarayoni, biologik aktivlarning haqiqiy tannarxi, adolatli qiymatni o'lchash, keyingi o'lchov.*

Bugungi kunda qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talabida tashkil etish uchun qator muammolar mavjud: Ko'pchilik fermer xo'jaliklarda buxgalteriya hisobi to'liq tashkil etilmagan. Hisobotlar faqat soliq maqsadlarida tuziladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun biologik aktivlarni to'g'ri baholash, hisobga olish va hujjatlashtirish moliyaviy hisobotning ishonchliligi va xalqaro investorlar oldida shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, joriy biologik aktivlar (masalan, bug'doy, paxta, sabzavot ekinlari) o'zining qisqa hayot sikli va hosil olishga yo'naltirilganligi bilan alohida hisob tartibini talab qiladi.

Qisqa muddatli (joriy) biologik aktivlar – bu bir vegetatsiya mavsumi davomida o'sib, hosil berib, hayot sikli yakunlanadigan qishloq xo'jaligi ekinlaridir. Bu turdagi o'simliklarga don ekinlari (bug'doy, arpa, sholi), texnik ekinlar (paxta, zig'ir, kungaboqar), sabzavot va poliz ekinlari (kartoshka, pomidor, qovun) va boshqalarni kiritish mumkin.

Joriy biologik aktivlarni hisobini to'g'ri tashkil etishda ularni iqisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval

**Joriy biologik aktivlarni iqtisodiy mohiyati bo'yicha tavsiflanishi[203]**

| № | Iqtisodiy guruhi | Qisqacha tavsif | Misollar |
|---|---|---|---|
| 1 | Oziq-ovqat ekinlari | Inson iste'moli uchun asosiy oziq-ovqat manbai | Bug'doy, sholi, makkajo'xori, arpa va b. |
| 2 | Texnik ekinlar | Sanoatda qayta ishlash uchun xom ashyo beradi | Paxta, qand lavlagi, kungaboqar, soya va b. |
| 3 | Ozuqabop ekinlar | Chorva mollari uchun em-xashak sifatida etishtiriladi | Sudan o'ti, beda, makkajo'xori va b. |

[203] Muallif ishlanmasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | Sabzavot ekinlari | Yangi yoki qayta ishlangan holda iste’mol qilinadi | Pomidor, bodring, karam va b. |
| 5 | Dorivor ekinlar | Tibbiyot va farmasevtikada qo’llaniladi | Romashka, yalpiz, issop va b. |
| 6 | Manzarali ekinlar | Bezak va ko’kalamzorlashtirish uchun etishtiriladi | Astra, kalendula, kosmeya va b. |
| 7. | Mevalar | Iste’moli uchun asosiy oziq-ovqat manbai | Olma, nok, anor va b. |

Joriy biologik aktivlar biologik aktiv sifatida quyidagi shartlar bajarilganda tan olinadi:
- Korxona aktiv ustidan nazoratga ega bo’lsa;
- Kelgusida iqtisodiy naf olish ehtimoli mavjud bo’lsa;
- Aktivning qiymati ishonchli baholansa.

Quyida joriy biologik aktivlarni **moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)** va **buxgalteriya hisobining milliy standartlari** (BHMS) asosida hisobga olishdagi asosiy farqli jihatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**Joriy biologik aktivlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) asosida hisobga olishdagi asosiy farqlar[204]**

| № | Solishtirish mezoni | MHXS (IAS 41) bo’yicha | BHMS bo’yicha |
|---|---|---|---|
| 1 | Hisob ob’ekti | Biologik aktiv sifatida tan olinadi | Asosan ishlab chiqarish xarajatlari ob’ekti sifatida |
| 2 | Tan olish sharti | Nazorat, iqtisodiy naf va ishonchli baholash mavjud bo’lishi kerak | Ekish va parvarishlash xarajatlar amalga oshirilganligi asos qilinadi |
| 3 | Dastlabki baholash | Adolatli qiymat – sotish xarajatlari chiqarilgan holda | Haqiqiy tannarx (rejali yoki haqiqiy) bo’yicha |
| 4 | Keyingi baholash | Har hisobot sanasida adolatli qiymatda qayta baholanadi | Qayta baholash amalga oshirilmaydi |
| 5 | Qiymat o’zgarishlarini aks ettirish | Foyda yoki zarar tarkibida darhol tan olinadi | Moliyaviy natijalarga bevosita ta’sir etmaydi |
| 6 | Hosil yig’im-terimi paytida | Mahsulot adolatli qiymatda baholanadi | Mahsulot haqiqiy tannarxda kirim qilinadi |

[204] Muallif ishlanmasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7 | Keyingi hisob | IAS 2 «Zaxiralar» standartiga o’tkaziladi | Tovar-moddiy zaxiralar hisobi qoidalariga muvofiq |
| 8 | Hisobotda ochib berish | Batafsil axborot va baholash usullari ochib beriladi | Axborot ochib berish cheklangan |
| 9 | Moliyaviy hisobotga ta’siri | Aktivlar va foyda o’zgaruvchan bo’lishi mumkin | Hisobot ko’rsatkichlari barqaror |
| 10 | Investorlar uchun shaffoflik | Yuqori | Nisbatan past |

BHMSga asosan joriy biologik aktivlar unib chiqishi va chiqmasligidan qa’tiy nazar ishlab chiqarish xarajatlari ob’ekti sifatida tan olinadi. Joriy biologik aktivlar ekish va parvarishlashga qilingan xarajatlar 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” xarajatlari schyotining debetida hisobga olinadi. Bu hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

1. Urug’lik yerga ekilganda ekilgan urug’lik summasiga:
Dt 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”,
Kt 1010-“Xom-ashyo va materiallar (urug’lik analitik schyoti)”.
2. Ekin maydoniga o’g’itlar berilganda sarflangan o’g’itlar summasiga:
Dt 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”,
Kt 1010-“Xom-ashyo va materiallar (o’g’itlar analitik schyoti)”.
3. Urug’likni ekish xarajatlari summasiga:
Dt 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”,
Kt 2310-“Yordamchi ishlab chiqarish (mashina-traktor parki xarajatlari)” va boshqalar.
4. Mahsulotni yig’ish paytidagi kirim qilingan qishloq xo’jaligi mahsulotlari summasiga (reja tannarxga, haqiqiy tannarx yil yakunida ma’lum bo’ladi):
Dt 2810-“ Ombordagi tayyor mahsulotlar”,
Kt 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”.

MHXSga muvofiq joriy biologik aktivlar **aktiv** sifatida quyidagi shartlar **bir vaqtning o’zida bajarilganda** tan olinadi:

- xo’jalik tomonidan nazorat qilinishi omillari mavjud bo’lsa, ya’ni masalan, urug’ ekilib, o’simlik korxona yer maydonida o’sish jarayoniga kirgan bo’lsa.
- xo’jalikka kelgusida iqtisodiy naf keltirishi ehtimoli mavjud bo’lsa, ya’ni hosil olish, sotish yoki qayta ishlash imkoni mavjud bo’lsa.
- xo’jalik tomonidan ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar qiymatini ishonchli bahola mumkin bo’lsa, ya’ni adolatli qiymat yoki uni aniqlash imkoni bo’lmasa, boshlang’ich xarajatlar orqali.

Xalqaro amaliyotda joriy biologik aktivlar urug’ ekishning o’zida emas, balki nihol chiqqandan, biologik o’sish jarayoni boshlangandan boshlab xo’jalik ushbu o’simlik ustidan real nazorat o’rnatgan paytdan boshlab biologik aktiv sifatida tan olinadi.

Amaldagi 21-BHMSda biologik aktivlarni hisobga oladigan schyotlar belgilanmagan. Bizning fikrimizcha, amaldagi schyotlar rejasidagi 1200-“Joriy biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (o’simliklar)” deb nomlash va bu schyot tarkibida quyidagi schyotlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz:

1210-“Oziq-ovqat ekinlari”;

1220-“Texnik ekinlar”;
1230-“Ozuqabop ekinlar”;
1240-“Sabzavot ekinlari”;
1250-“Dorivor ekinlar”;
1260-“Manzarali ekinlar”;
1270- “O’simliklar hosili”;
1290-“Boshqa bir yillik o’simliklar”.

Nihol unib chiqqandan, o’simlik to’liq biotranspormatsiya jarayoniga kirgandan keyin ishlab chiqarish xarajatlari biologik aktivlar deb tan olinadi. Bu hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 1200-“Joriy biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (o’simliklar)”,
Kt 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”.

Shu paytdan boshlab o’simliklar adolatli qiymatda (agar adolatli qiymatni aniqlash imkoni bo’lsa) yoki tannarxida baholanadi.

Adolatli qiymat – bu faol bozor ishtirokchilari o’rtasida odatiy shartlarda, sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda aktivni sotish mumkin bo’lgan narx.

Agar adolatli qiymatni ishonchli aniqlab bo’lmasa, biologik aktivlar tannarx bo’yicha, yig’ilgan amortizatsiya va qadrsizlanish chiqarilgan holda baholanadi.

Joriy biologik aktivlar (o’simliklar)ni o’sish davridagi qiymatining o’zgarishiga, agar adolatli qiymat oshsa:

Dt 1200-“Joriy biologik aktivlar (o’simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar”,
Kt 9390-“ Boshqa operatsion daromadlar (biologik aktivlarni qayta baholashdan daromad)”.

Agar adolatli qiymat kamaysa:

Dt 9430-“Boshqa operatsion xarajatlar (biologik aktivlarni qayta baholashdan zarar)”.
Kt 1200-“Joriy biologik aktivlar (o’simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar”.

Biologik aktivning hayotiy faoliyati tugab, mahsulot olinganda yoki hosil yig’ib olinganda:

Dt 2810-“Tayyor mahsulot (qishloq xo’jaligi)”,
Kt 1200-“Joriy biologik aktivlar (o’simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar”.

Hosil yig’ib olingan paytdan boshlab mahsulot **zaxiralar** hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro hisob amaliyotida “biologik aktivlar” moliyaviy hisobotning muhim ob’ekti sifatida tan olinadi.

Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, biologik aktivlar hisobiga doir rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanilishiga erishish bu barcha mamlakatlarning milliy moliyaviy hisoboti uchun muhim va dolzarb masalalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Qishloq xo’jaligi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun biologik aktivlarni to’g’ri baholash, hisobga olish va hujjatlashtirish moliyaviy hisobotning ishonchliligi va xalqaro investorlar oldida shaffoflikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO’YXATI

1. A.S.Boltaev. Biologik aktivlar hisobining uslubiy jihatlarini takomillashtirish “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 2024 yil 1-son (yanvar-fevral) http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal 39-40-betlar.
2. A.Эraliev. Biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar hisobining xalqaro standartlar bo’yicha tasnifi va tavsifi // https://sciup.org/ekonomika-socium №6 (97)-2022.

3. O.G.Popova. Оценка biologicheskix aktivov. // https://finotchet.ru/articles/444/
4. Israilov, T. M. Biologicheskie aktivы: priznanie, klassifikatsiya, оценka i uchet soglasno MSFO / T. M. Israilov, A. A. Kurmanbekova, N. Timur кызы // Соціalnoe predprinimatelstvo i korporativnaya соціalnaya otvetstvennost. – 2023. – T. 4, № 3. – S. 171-188. – DOI 10.18334/social.4.3.120881
5. 41-son BHXS “Qishloq xo’jaligi” https://nrm.uz/contentf?doc=708861 (ias) 41qishloq_ho%E2%80%98jaligi_buhgalteriya_hisobining_halqaro_standarti_(AV tomonidan_09_12_2022_y_3400-son_bilan_ro%E2%80%98yhatga olingan moliya vazirining_10_11_2022_y_61-son_buyrug%E2%80%98iga_26-ilova)&products=1 vse zakonodatelstvo uzbekistana
6. Ravshanov Alisher. Biologik aktivlarni tan olish va baholash masalalari https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/3431.
7. Ravshanov Alisher Bobaqulovich. Biologik aktivlarni hisobga olishning nazariy masalalari va ularni amaliyotda qo’llash muammolar. https://dspace.kstu.uz/items/080c5f61-a1ec-4401-9e13-96ac8fc9dc87.

## QISHLOQ JOYLARIDA XOTIN-QIZLARNI ASALARICHILIK TADBIRKORLIGI ORQALI ISH BILAN TA’MINLASH HAMDA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

***Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich*** *- Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kaferdirasi katta o’qituvchisi e-mail: sohibkulmurotov@gmail.com*
*ORCID: https://orcid.org/0009-0004-4508-5818*
***Orifova Xurshida Xolyor qizi*** *- Qarshi davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati qishloq hududlarida xotin-qizlarning asalarichilik tadbirkorligi orqali ish bilan ta’minlanishi va oilaviy daromadlarning oshirilishi masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda viloyatning tabiiy-iqlimiy resurslari, asalarichilik salohiyati, mavjud huquqiy-iqtisodiy baza hamda milliy va xalqaro statistik ma’lumotlar tahlil qilingan. O’zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi, Qashqadaryo viloyati qishloq xo’jaligi boshqarmasi rasmiy ma’lumotlari asosida viloyatda asalarichilik tarmog’ining rivojlanish dinamikasi o’rganilgan. Tadqiqot natijasida qishloq xotin-qizlarining asalarichilik tadbirkorligiga jalb etilishi iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi isbotlangan va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *asalarichilik, xotin-qizlar tadbirkorligi, qishloq joylari, iqtisodiy samaradorlik, Qashqadaryo viloyati, bandlik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik.*

**KIRISH (Introduction)**

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish sharoitida qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash, ayniqsa, xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Prezident farmon va qarorlari, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Xotin-qizlar va oila institutini qo’llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida"gi PF-60-son Farmoni qishloq xotin-qizlarining iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asos yaratdi.

| | |
|---|---|
| Xo’janova Gulshoda Otamurodovna, Xushvaqtova Ruxshona Farxod qizi - Banklarda valyuta operatsiyalari auditini takomillashtirish | 776 |
| Nabiyev Olimjon Abdisalomovich, Nazarova Gulnoza Xolmirzayevna - Samarali jamoalarni rivojlantirishning xorijiy tajribalari | 780 |
| Shukurov Akmal Uktamovich, Berdiyev Kamoliddin Roziqovich - Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar | 787 |
| Boltayeva Mohichehra Sharipovna - Sun’iy intellekt, inson kapitali va yashil logistika o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik: vositachilik va moderatsiya modeli asosida tahlili | 792 |
| Dilafruz Taylakova Baymamatovna - Qishloq joylarida xizmat ko’rsatishda raqamlashtirishning o’rni | 797 |
| Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich - Inson kapitali, yashil logistika va risklarni boshqarish o’rtasidagi o’zaro ta’sir: vositachilik va moderatsiya asosidagi kompleks model | 800 |
| Dilafruz Taylakova - Qishloq joylarda raqamli xizmat ko’rsatishni rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari | 804 |
| Ravshanov Alisher Bobaqulovich – Joriy biologik aktivlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari | 806 |
| Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich, Orifova Xurshida Xolyor qizi - qishloq joylarida xotin-qizlarni asalarichilik tadbirkorligi orqali ish bilan ta’minlash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish | 810 |
| Bazarova Mamlakat Supiyevna - Sanoat korxonalarida innovatsion biznes modellari, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va marketing strategiyalarini takomillashtirish | 817 |
| Rajabova Mohichehra Abduxoliqovna - Sanoat korxonalarida zamonaviy raqamli marketing yondashuvlari asosida mijozga yo’naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish | 821 |
| U.Z.Raximova - Qimmatli qog’ozlar va ularning iqtisodiy ahamiyati | 826 |
| Xasanova Rayxon Bozarovna, Xujamurodova Shaxina - Ipak qurti urug’chiligi, korxonlarida sanoat urug’larini tayyorlash | 830 |
| Hayitmurodova Jasmina Bekmurod qizi, Ilmiy rahbar: Kabilova Shahnoza - Rivojlanayotgan davlatlarda bank tizimi muammolari | 833 |
| Isomiddinov Ma’rufjon Umid o’g’li, Jumayev Yahyo Yoqub o’g’li - Sun’iy intellekt asosida shaxsga yo’naltirilgan ta’limni tashkil etishning ijtimoiy ahamiyati | 837 |
| Muradov Sirojiddin Husan o’g’li - O’zbekistonda kichik va o’rta biznesda raqamli iqtisodiyotning samaradorligi | 840 |
| Nazarova Gulrux Umarjonovna - Innovatsion biznes modellari, startaplar va xizmat ko’rsatish sohasida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari | 847 |
| Maxkamova Munira Abdurashid qizi - Innovatsion biznes modellari, startaplar va xizmat ko’rsatish sohasida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini o’rganish | 850 |
| Boymurzayeva Rayhona Nizomjon qizi, Ilmiy rahbar: Mashhura Ostonova - Innovatsion biznes modellari, startaplar va xizmat ko’rsatish sohasida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari | 854 |
| Mahmadaliyev Bahrom Nazarovich - Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq yukini optimallashtirish yo’llari | 857 |
| Xolmirzayev Toir Ro’zimurodovich, Axrorov Saidamin Sayfutdin o’g’li - Korxonalarda boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish | 860 |
| Madatov Quvonchbek Geldiyor o’g’li, Begmamatova Guliza Baxtiyor qizi, Jangiboyeva Dilnoza Murodjon qizi, Berdiraxmatova Sevinch Abdimurot qizi - Innovatsion biznes modellari sohasida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari | 866 |
| Xatamov Abror Abdigapparovich - Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va rivojlantirish yo’nalishlari | 869 |